

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025**Accepted:** 1 December 2025**Published:** 15 December 2025*Article / Original Paper***COMPARATIVE ANALYSIS OF THE “NEAR-FAR” OPPOSITION WITHIN THE CATEGORIES OF SPACE AND TIME IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES****Khayitova Gulhayo Tovasharovna**

Lecturer, Department of Practical English

Termez State Pedagogical Institute

E-mail: xaitovagulhayo6@mail.ru

Abstract. In this article, based on the data of monolingual and bilingual dictionaries of English and Uzbek, a comparative analysis is conducted of the lexical-semantic structure of the “near-far” opposition within the categories of space and time. The correspondence and differences of the analyzed “near-far” opposition in English and Uzbek, as well as its manifestation in literal and figurative meanings, are explained by the non-related nature of the two languages. In English and Uzbek, this opposition is used to describe physical, emotional or metaphorical distances between objects, people or ideas. In similarly inflected languages, the “near” and “far” opposition is in the main lexeme category used to represent proximity and distance. In Uzbek, we can give as an example the words *nari*, *beri*, which are characteristic of the dialect, equivalently to the lexeme “near-far”, but it should be taken into account that these equivalent words are used in some semas that represent the near-distant opposition that is, applied to distance and relationships. In English, the close lexeme denotes proximity or short distance. It can refer to both physical intimacy and abstract or metaphorical intimacy. The long lexeme, on the other hand, indicates a significant distance, either physically or metaphorically. In both languages, “near” and “far” can represent not only physical distance, but also emotional or ideological distances. For example, in English as in Uzbek, “close friend” means emotional intimacy, both of which have the same meaning. In these languages, adjectives or phrases are used to describe specific types of proximity or distance. In English, phrases such as “close”, “almost” or “far” mean the main meanings.

Keywords: proper meaning, figurative meaning, sema, near, far, opposition, equivalent.**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI****Xaitova Gulhayo Tovasharovna**

Termiz davlat pedagogika instituti,

Amaliy ingliz tili kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada, ingliz va o‘zbek tillarining izohli va ikki tilli lug‘atlari ma’lumotlariga ko‘ra, makon va zamon kategoriyasi doirasidagi yaqin-uzoq oppozitsiyalarining leksik-semantik tuzilishini chog‘ishtirma tahlil qilishdan iboratdir. Tahlil qilinayotgan “yaqin-uzoq” oppozitsiyasining ingliz va o‘zbek tillari mos kelishi va farqliligi, o‘z va ko‘chma ma’nolarda namoyon bo‘lishi tillarning noqardosh ekanligi bilan izohlanadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi “yaqin-uzoq” qarama-qarshilikning leksik-semantik tahlili ikkala madaniyatda ham munosabatlar qanday ifodalanishi va konseptualizatsiyasi haqida tushuncha beradi. Ushbu qarama-qarshilikni o‘rganib chiqib, biz ushbu tillarning yaqinlik va masofani ifodalashdagi o‘xshashlik va farqlariga duch keldik. Ingliz va o‘zbek tillarida bu oppozitsiya obyektlar, odamlar yoki g‘oyalar orasidagi jismoniy, hissiy yoki metaforik masofalarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Xuddi shunday chog‘ishtirilayotgan tillarda “yaqin” va “uzoq” qarama-qarshiligi yaqinlik va masofani ifodalash uchun ishlatiladigan asosiy leksema turkumiga kiradi. O‘zbek tilida “yaqin-uzoq” leksemasiga ekvivalent qilib shevaga xos so‘zlarni *nari*, *beri* so‘zlarini misol sifatida keltira olamiz, lekin shuni inobatga olish kerakki, ushbu ekvivalent so‘zlar yaqin-uzoq oppozitsiyasi ifodalaydigan ayrim semalarga ishlatiladi ya’ni masofa va munosabatlarga qo‘llaniladi. Ingliz tilida yaqin leksemasi yaqinlik yoki qisqa masofani bildiradi. Bu ikkala jismoniy yaqinlikka va mavhum yoki metaforik yaqinlikka murojaat qilishi mumkin. Uzoq leksemasi esa bu jismoniy yoki metafora bilan muhim masofani ko‘rsatadi. Ikkala tilda ham “yaqin” va “uzoq”

nafaqat jismoniy masofani, balki hissiy yoki mafkuraviy masofalarni ham ifodalashi mumkin. Masalan, ingliz tilida ham o'zbek tilida ham "yaqin do'st" hissiy yaqinlikni anglatadi, ikkalasi ham bir xil ma'noga ega. Ushbu tillarida yaqinlik yoki masofaning o'ziga xos turlarini tavsiflash uchun qo'shma so'zlar yoki iboralar bilan qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: o'z ma'no, ko'chma ma'no, sema, yaqin, uzoq, oppozitsiya, ekvivalent.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N53>

Kirish. Qarama-qarshiliklarni ya'ni oppozitsiyalarni o'rganish leksik birliklar ma'nosining turli darajalaridagi ichki tuzilish va semantik jarayonlar qonuniyatlarining muhim muammolaridan biridir. "Oppozitsiya" atamasini har qanday ikki til hodisasining qarama-qarshi munosabatlari deb tushuniladi. Shu bilan birga, qarama-qarshilikka kiritilgan leksik birliklar taqqoslash uchun asos bo'lgan umumiy xususiyatlarga va o'ziga xos xususiyatlarga qo'shimcha ravishda o'z ma'nolarida bo'lishi kerak. Qarama-qarshilik kategoriyasi borliqning asosiy mezonlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat markazidagi hodisalardan biri sifatida e'tirof etib kelingan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jumladan, rus tilshunosligidagi L.A.Novikov, V.A.Ivanova, N.Miller kabi tilshunoslarning ilmiy izlanishlari shular jumlasidandir. Turkologiyada ham qarma-qarshilik haqida bir qancha maqolalar yozilgan, darsliklarda dastlabki umumiy ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, mazkur mavzuga bag'ishlangan monografik asarlar 1970-yillar davomida maydonga kela boshladi. Birinchi navbatda qozoq tilidagi antonimlarni maxsus o'rgangan Musin [1] hamda ozarbayjon tilidagi antonimlarni tahlil qilgan Talibov [2]lar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilshunosligida esa antonimiya, oppozitsiya hodisalari haqidagi ilk ilmiy qarashlar S.Mutallibov [3], S.Usmonov [4] kabi olimlarning maqolalarida o'z aksini topgan bo'lsa, keyinchalik R.Shukurov[5], B.Isabekovlar[6] tomonidan ushbu masala nomzodlik dissertatsiyalarida tadqiq qilingan. Leksik birliklar o'rtasidagi semantik qarama-qarshilikning yuzaga kelishida ularning sememalari emas, muayyan semalari asos bo'ladi va bunday semalar qarama-qarshiligi – antisemiya nafaqat bir turkum, balki turli turkumdagi so'zlar munosabatida ham mavjud. Shunga ko'ra, leksik birliklardagi semantik qarama-qarshilikni faqat antinomiya doirasidagina emas, balki undan tashqarida ham tekshirish maqsadga muvofiqdir [7] kabi antisemiya borasidagi Abdullayevaga tegishli ilmiy tahlillar ham tilshunosligimizdagi mazkur sohadagi yutuqlardan biri desak xato qilmagan bo'lamiz. Deyarli barcha ishlarda leksik birliklarning mazmuniy qarama-qarshilik munosabati bir turkum doirasida olingan. Turkumlararo qarama-qarshilikka oid fikrlar, asosan, N.Millerning ilmiy qarashlarida uchraydi.

Natijalar va muhokama. "Yaqin" leksemasi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan o'zlashma so'z hisoblanadi va "haqiqiy bilim", "qat'iy ishonch" degan ma'nolarni anglatadi. Yaqin leksemasi sifat so'z turkumiga oid bo'lib, masofaga nisbatan ishlatiladi va uzoq emas degan ma'noda qo'llaniladi. *Biron kilometr yo'l bosganidan keyin, shu yaqin o'rtadan miltiq tovushi chiqdi [2:94]. Saltanat quyoshga o'xshaydi, juda yaqin borsang yonib ketishing mumkin [12:9]., Yaqin yo'l desang, Dushanbadayam kasalxona bor [10:113]. Markaziy laboratoriya endi yangi, keng binoda, o'z aktivlariga yaqin joyda mahkam o'rnashdi.* "Yaqin" leksemasi shevalarda *beri*, o'g'uz lahjasida esa *bari* leksemalari bilan ma'nodosh bo'ladi, *beri*, *bari* so'zlari ham masofaga nisbatan qo'llaniladi; *Men kaftim bilan beri kelinglaer ishorasini berdim [10:77], Oysuluv, beri kel, Yo'ldoshxon bilan tanishib ol, onamizning oldiga borib maqtanasan [12:33].*

"Yaqin" leksemasi vaqtga nisbatan ham qo'llanilib, vaqt oralig'i katta bo'lmagan kelajakda sodir bo'ladigan va bajarilganligiga ko'p vaqt bo'lmagan ish harakatlar oldidan

ishlatiladi: *Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi...*[2:37], *Yaqin kungacha bir-birimizni do'st deb yurganimizga hayron bo'laman.*, *Imtixonga yaqin qolganda, laborant qiz agrotexnikadan o'zim o'rgatib qo'yaman degan edi*[8].

Xuddi shunday asosi “yaqin” bo'lgan ravish so'z turkumiga kiruvchi “yaqinda” leksemasi ham o'z navbatida vaqt ma'nosini ifodalab keladi. “Yaqinda” ravishini tahlil qilar ekanmiz, ushbu leksemadan anglashilgan ma'nolar umumiy vaqt semasiga birlashsa ham, ular o'rtasida tafovut mavjud. *Ma'lum bo'lishicha, u yaqinda, boyvachcha bilan unga qarashli konchilikka borgan ekan* [2:26]. Masalan, yuqorida keltirilgan gapdagi “yaqinda” so'zi ayni vaqtdan biroz avval bajarilgan ish harakat mazmunini beryapti. *Hali, shu yaqinda pista chaqqanimni eslolmayman*[10:123], *U yaqinda boshqa ishga o'tadi.*, *Yaqinda, biz ham sayrga chiqamiz* kabi gaplarda shu kunlar ichida, kelajakda bajarilishiga oz qolgan ma'no anglashilyapti. *Yaqinda do'kon bormi?* – ushbu gapda esa “yaqinda” leksemasi vaqt ma'nosida emas balki *shu atrofda* ma'nosida kelyapti. Ayiruv-chegaralov yuklamasi hisoblanmish –gina qo'shimchasi, yaqin so'ziga qo'shilganda bajarilgan ish harakatning biroz oldin bajarilganligini ta'kidlash uchun ishlatiladi. *Lekin eng qizig'i shunda ediki, gulning aylanasi chuqur qilib qazilgan bo'lib, kimdir unga yaqindagina suv qo'yganligi ko'rinib turardi.*

Praktikum, minimum, maksimum – bular hammasi lotincha yoki lotinchaga yaqin so'zlar[2:41]. *Azirim, men ham xuddi shu bolakayning yoshida o'qigan edim o'sha kitobni. Siz ham... Biografiyamiz qanchalik yaqin-a?*, *Yana o'sha “o”si “u” ga yaqin Namangan shevasi Gavharga shirin tuyuldi.* O'xshatish ma'nosida ham yaqin so'zi qo'llaniladi.

U ham o'sha paxta tozalash zavodida o'ttiz besh yilga yaqin avval oddiy ishchi, keyin master bo'lib ishlagan va shu yil bahorda pensiyaga chiqqan ekan. Ushbu keltirilgan misollarda yaqin so'zining taxmin ma'nosini ifodalab, taxminan so'zi bilan ma'nodosh bo'lyapti.

O'zbek tilining izohli lug'atida, “yaqin” leksemasining o'z va ko'chma ma'nolari bilan birgalikda 7 ga yaqin ma'nolari keltirib o'tilgan [14:130]. “Yaqin” leksemasining ma'nolari quyidagicha ta'riflangan. Ingliz tilining izohli lug'atida esa o'z va ko'chma ma'nolari bilan birgalikda 5 ta ma'nolari keltirilgan.

№	Ma'nolari	Misollar
1	Oraliq masofa uchun katta bo'lmagan, uzoq emas	<i>Eng yaqin yo'l –shu., Shaharga yaqin bir qishloqda yashaymiz.</i> <i>Biron kilometr yol bosganidan keyin, shu yaqin o'rtadan miltiq tovushi chiqdi., Buni eshitgan Nizom qayig'ini uylari oldidagi qoziqqa yaqin keltirib bog'ladi.</i>
2	Nutq so'zlanayotgan paytdan vaqt oralig'i uchun uncha katta bo'lmagan	<i>Yaqin fursatda diydor ko'rishmoqni orzu qilamiz.</i> <i>Yaqin kelajakda bu yerlar shaharga aylanadi</i>
3	Biror hodisa yoki voqea yuz berishiga oz fursat qolganda, ma'lum bir vaqt kelishi oldidan	<i>Kechga yaqin mehmonlar kelishdi. Saharga yaqin yo'lga tushdilar. Ish bitishiga yaqin qoldi</i>
4	Munosabatga nisbatan	<i>Yaqin o'rtoq, yaqin do'st. Mehmonlarni to'y egasining yaqinlari hurmat va sertakalluflik bilan kutib oldi</i>
5	O'xshash deyarli bir xil	<i>Havosi bir-biriga yaqin. Ma'nosi bir biriga yaqin so'zlar</i>
6	Taxminan, qariyb	<i>Bir kuni ikki kishining so'rog'i yaqin to'rt soat vaqttni oldi</i>

“Yaqin” leksemasi ingliz tilida “near” soʻzi bilan, shu bilan bir qatorda yaqin sememasini beruvchi *close to, nearby, ...*kabi soʻzlar bilan qoʻllaniladi. Longman Dictionary of Contemporary English lugʻatida *near* leksemasining beshta maʼnosi keltirib oʻtilgan[16:1162]. *They live near London, I am sure, he owns a house somewhere near here...* ushbu gaplarda *near* soʻzi masofaga nisbatan ishlatilib, xuddi oʻzbek tilidagidek, unchalik uzoq emas maʼnosini anglatyapti. *I told him not to go near there, Once he crawled near to the sick wolf* xuddi oʻzbek tilidagi singari *near* soʻzi ham masofaga nisbatan oʻz maʼnosida qoʻllanilyapti. *Near* leksemasi ingliz tilida vaqt maʼnosiga ham murojaat qilishi mumkin qachonki, maʼlum bir vaqt yoki voqea oldidan sodir boʻladigan vaqtga ishora qilinsa. *It was near twelve – Soat oʻn ikkiga yaqin edi, The season was near the last of July – Fasl iyul oyining oxirlariga yaqin edi.*

	Meanings	Examples
1	Short distance away	<i>We heard strange noises as we drew near the village[4:194] – Qishloqqa yaqinlashishimiz bilan, gʻalati ovoz eshitdik.</i>
2	Short time before	<i>I will send you a letter near Christmas – Rojdestvoga yaqin senga xat yuboraman</i>
3	Almost doing something	<i>She was near to crying – Uni yigʻlab yuborishiga yaqin qolgandi.</i>
4	Amount or level	<i>Inflation is now near 20 percent – Inflatsiya 20 foizga yaqin.</i>
5	Similar	<i>Some people say, love is very near to hate – Baʼzi insonlarning aytishicha sevgi nafratga yaqin turadi.</i>

Uzoq leksemasi sifat soʻz turkumiga mansub boʻlib, qadimgi turkiy tildagi **uzoqla** maʼnosini anglatgan **uza** feʼlidan – **q** qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan. Oʻzbek tilidagi **q** undoshi oldidan **a** unlisi **o** ga almashgan. **Uza+q = uzoq**. “Uzoq” leksemasini ham ingliz va oʻzbek tillaridagi lugʻatlar asosida tahlil qiladigan boʻlsak, ikkala tilda ham 4 ta maʼnosi mavjudligini (oʻz va koʻchma maʼnolari bilan birgalikda) koʻrishimiz mumkin. Vaqt va masofa maʼnolarini anglatishi ikkala tilda ham aynanlikka ega. *The children didn't go far from home – Bolalar uydan uzoqqa ketishmadi, They could hear the sound of water near away – Ular uzoq boʻlmagan joyda suv tovushini eshitishdi.* Yuqorida keltirib oʻtilgan jumalarda **uzoq/far** leksemasi masofaga nisbatan ikkala tilda ham ishlatilyapti. *The first petrol driven car was produced as far back as 1883- Birinchi benzinli mashina uzoq zamonga, 1883-yilga taqaladi.*

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, noqardosh tillar hisoblanuvchi, ingliz va oʻzbek tillardagi lingvistik hodisalarni jumladan qarama-qarshiliklarni leksik va semantik jihatdan qanday ifodalanishini oʻrganish orqali biz har ikki tilning madaniy kontekstlar taʼsirida dunyoqarashini, soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolarda ifodalanishini, ingliz va oʻzbek tillaridagi farqlilik va oʻxshashliklarni chuqurroq tushunamiz. Ingliz va oʻzbek tillaridagi “yaqin-uzoq” qarama-qarshiligi chogʻishtirilganda yaqin leksemasining oʻzbek tilidagi izohli lugʻatlarda aks ettirilganida koʻra 7 ta maʼnoda, ingliz tilida esa 5 ta maʼnoda kelishi dalillandi. Xuddi shunday

uzoq leksemasi ham chog'ishtirilganda ikkala tilda ham ma'nolarning teng ekanligiga ya'ni 4 tadan ma'no ifodalanishiga guvoh bo'ldik.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullayeva D. O'zbek tilida antisemiya: Filol. fan. nomz. ... diss. Avtoreferat. – Toshkent: 2010.
2. Qahhor A. Adabiyot muallimi. Toshkent: Ziyo nashr, 2019. – 94 b.
3. Isabekov B. Hozirgi o'zbek tilida leksik antonimiya: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent. 1973.
4. Jack London. To build a fire and other stories. Global language resources. 2003. – P.194
5. Мусин Ж. Антоним в казахском языке. Алма-Ата, 1970
6. Mutallibov S. Antonim so'zlar // Sovet maktabi, 1955. – B. 112.
7. Qodirov P. Avlodlar davoni. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2018.
8. Талибов К. А. Антонимы в современном азербайджанском язмке. Баку, 1971. – С. 134.
9. Tog'aymurod. Otamdan qolgan dalalar. Toshkent: Sharq, 1994. – 77 b.
10. Usmonov S. Antonimlar // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1958. – B. 244.
11. To'xtaboyev X. Qiz bolaga tosh otmang. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
12. Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
13. O'zbek tilining izoxli lug'ati. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 130 b.
14. Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining leksik-semantik tabiati: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent: 1973.
15. Longman Dictionary of contemporary English for advanced learners. Uk: Pearson education limited. 2009.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).